

**Yuldasheva Bibirajab  
Buxoro davlat universiteti dotsenti  
Yangiyeva Dilnoza  
Buxoro davlat universiteti magistranti**

---

## **AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA YER-SUV MUNOSABATLARI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston hududida Amir Temur va Temuriylar davrida yer-suv munosabatlari tarixi yozma manbalar natijalaridan keng foydalangan holda yoritib berilgan. Mintaqasi sivilizatsiyasining rivojlanishida qishloq xo'jaligi, sug'orma dehqonchilik madaniyatining tutgan o'rni ko'rib chiqilgan, ajdodlarimiz to'plangan boy tajribaning bugungi davr uchun ahamiyati haqida masalalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Sun'iy sug'orish, zarbxona, korizlar, sug'orma dehqonchilik madaniyati, begor, mulki vaqf, Ko'ktosh, dehqonchilik ishlab chiqarishi, 12 chorborg', langarxona.

**Annotation:** This article covers the history of Land-Water relations in the territory of Uzbekistan under Amir Temur and Timurids with extensive use of the results of written sources. The role of agricultural, irrigation farming culture in the development of the civilization of the region was considered, issues were analyzed about the importance of the rich experience accumulated by our ancestors for today's time.

**Keywords:** Artificial irrigation, mint, Corries, irrigation farming culture, begor, mulki Waqf, Cobblestone, farming production, 12 quarries, Anchorage.

**Аннотация.** В данной статье освещается история земельно-водных отношений на территории Узбекистана в период правления Амира Темура и Тимуридов с широким использованием результатов письменных источников. Рассмотрена роль земледелия, культуры ирригационного земледелия в развитии цивилизации региона, проанализированы вопросы о значении для сегодняшнего времени богатого опыта, накопленного нашими предками.

**Ключевые слова:** Искусственное орошение, кузница, загоны, культура орошаемого земледелия, берег, имение Вакф, Кокташ, сельскохозяйственное производство, 12 кварталов, якорь.

---

### **KIRISH**

So'nggi yillarda O'zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan izchil islohotlar jarayonida qishloq xo'jaligida asrlar davomida to'plangan, hayot sinovidan o'tgan va qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analar, qarashlar bilan bog'liq ajdodlarimiz tajribasidan foydalangan masalasi dolzarb hisoblanadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Amir Temur bobomizning yurt obodonchiligi, xalq farovonligi yo'lida barpo etgan mashhur bog'lari alohida e'tirof etiladi. Saltanatda islomning ilmiy asoslariga tayanilgan holda davlat boshqarilgani holda, bag'rikenglikka ham amal qilindi. Amir Temur va Temuriylar saltanatida davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uyg'unlashtirildi, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorlik o'rnatildi. Bu tadbirlar Amir Temur davlatining keyingi taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi, ilm-fan, ma'naviyat, me'morchilik va san'at beqiyos darajada rivoj topdi, bu esa haqli ravishda fanda ikkinchi Uyg'onish deb ataldi. Shu jihatlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotda o'rta asrlar davridagi yer-suv munosabatlari, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik ishlab chiqarishi va uning turlari, yer egaligi munosabatlari masalasiga oid ma'lumotlar hozirgi zamon nazariy-uslubiy talablari nuqtai nazaridan tadqiq qilindi. O'rta asrlar davridagi yer-suv munosabatlari, uning o'ziga xos jihatlari davlatchilik tarixida muhim o'rinni tutadi.

O'rta asrlar davridagi yer egaligi munosabatlari, dehqonchilik, sun'iy sug'orish sohasidagi asriy tajribalar tarixini tarixiylik nuqtai nazaridan alohida mavzu sifatida tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib, ushbu maqolada Temuriylar davridagi yer-suv munosabatlari tarixini yoritish maqsadi qo'yildi.

Xalqimiz tarixining kam o'rganilgan masalalarini yoritish bo'yicha katta ishlar olib borilayotgan hozirgi davrda O'rta Osiyo xalqlarining yer-suv munosabatlari tarixini har bir tarixiy davr bo'yicha o'rganish dolzarb ilmiy muammo sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu ham tanlangan tatqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Amir Temur 150 yillik mo'g'ul istibdodini tugatib, o'zaro nizo-parokandalikka chek qo'ydi, uning sa'y-harakatlari bilan kuchli markazlashgan davlat yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida ulug' sultanat-da madaniy hayotning nafaqat jonlanishi, balki yuksalishiga zamin yaratdi. Mazkur jarayonni shaxsan Amir Temurni o'zi davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatladi. U o'z bunyodkorligini aynan davlat siyosati maqomida belgiladi. Tarixchilar xabar berishicha, masalan, Temur farmoyishiga muvofiq ekinzorlar yaqiniga o'tov o'rnatish qo'shin rahbarlariga ta'qiqlangan. Biroq ayrim hollarda yem-xashak yo'q paytida, hukmdor roziliqi bilan, yosh ekin va hatto yetilgan hosil otlar va mollarni bo-qish uchun foydalanishi mumkin edi. Ispan elchisi Klavixo shunday hollardan birini bayon etadi: "Olampanoh bug'doylar (yem-xashak uchun) o'rib olinsin, deya buyurdi. Uning ortidan kelayotgan qo'shin esa yo'lida uchragan hamma narsani taladi...".

Sohibqiron Amir Temur tarixda nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki obodonchilik ishlariga xam xomiylik qilgani haqida o'sha davr tarixiy manbalarida ma'lumotlar bor. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida, bu sifat, ya'ni bunyodkorlik Hazrat Sohibqironda tug'ma edi, deb Xorazm voqealaridan (1388 yil) shunday bir misol keltiradi: "Aslini olganda, Onhzazratning muborak fe'l-atvoridaadolat qilmoq tug'ma sifat bo'lib, oliy himmati shaharlarni obod qilishga ishtiyoqmand edi. Shu sababdan, Xorazm xarob etilgandan keyin, oradan uch yil o'tgach, podshohlik marhamati hijriy 793 (milodiy 1391) yili Jangi qavchinning o'g'li Musikani Xorazmni obod qilish uchun jo'natdi. Xozirgi paytda (XV asr 20-yillarda) Xorazmning (eng) obod joyi o'sha erur".

Demak, aytish mumkinki, Amir Temurning davlatchilik faoliyatida obodonchilik ishlariga katta e'tibor bergenligi tasodifiy hol bo'lmay, balki uning zamirida Sohibqiron tug'ilib, o'sib-ulg'aygan Shahrisabzdagi ko'p asrlik madaniy hayot an'anasi ta'siri yotadi. Zero, Sohibqiron hali davlat tepasiga kelmasdanoq obodonchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Jumladan, 1366 yili qish fasilda Qarshi shahri qo'rg'onini tiklamoqqa farmon berdi va o'sha qishning uzidayoq bu qurilish nihoyasiga yetdi. Oradan bir yil o'tgach, Hazrat Sohibqiron yana mazkur shaharda to'xtab, viloyatning imo-rati va ziroatini yaxshilashga buyuradi. Ayni paytda, Mahmudshohga Buxoroni boshqarmoq va ma'mur qilmoqni topshiradi. Bu ishlarni Amir Temur hali yigitlik chog'laridayoq amalga oshirgan.

Akademik V. V. Bartold Amir Temurning ziddiyatli faoliyatini shunday tafsiflaydi: "Temur ayni bir paytda beshafqat, vayronakor va jonboz quruvchi edi; uning tomonidan ajoyib bog'-rog'lari bilan muhtasham binolar qurildi, shahar va qishloqlar tiklandi, sug'orish tizimlari barpo etildi va

tuzatildi; rasmiy tarixning ifoda etishicha, umuman ekin yetishtirish mumkin bo`lgan yer bekor yotmagan”.

Uning o`g`li Shohruh va nabirasi Ulug`bek bu siyosatni davom ettirishga harakat qildi. 1403 yili Samarqandga Ispaniyadan elchi bo`lib kelgan Rui Gonsales de Klavixo shaharning ko`rkamligidan hayratda qolgan. U shahar bog`lar va uzumzorlar bilan o`ralganini, shahar tashqarisida joylashgan bog`larda ko`pdan-ko`p uylar, shoxning saroylari, omborlari bo`lganligini, shaxarga kirib borganda, go`yo shaxar baland daraxtlar bilan qoplangan o`rmon o`rtasida turganday taassurot qoldirganini yozadi.

Temur har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani me`morchilik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bo`lgan. Imoratlarni Hindistondan olib kelingan g`isht teruvchilar, Sheroz, Isfahon va Damashqning usta-hunarmandlari, mahalliy ustalar bino qildilar. Temur Tabrizda masjid, Sherozda saroy, Bag`dodda madrasa, Turkistonda Ahmad Yassaviy maqbarasini qurdirdi. Shahrisabzda otasi va o`g`li Jahongirga maqbara, jome masjidi, Oqsaroyni qurdi. Oqsaroy peshtoqiga “ Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, bizning imoratlarimizga boq” degan xitobnama bitilgan. Turkistonda Yassaviy maqbarasini bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan.

Samarqand poytaxt sifatida Temur davrida qadimgi o`rnidan biroz janubroqda qayta quriladi. Samarqand atrofida 6 ta darvoza: Oxanin, Shayxzoda, Chorsu, Korizgoh, Suzangaron va Feruza bunyod etilgan. Samarqand arkida Temurning qarorgohlari Ko`ksaroy va Bo`stonsaroy bino qilindi. Ko`ksaroy 4 qavatli bo`lib, gumbaz va devorlari zangori koshinlar, naqshlar bilan qoplangani uchun shunday nomlangan. Ko`ksaroya xonlarni taxtga o`tkazish marosimida ishlatiladigan tosh taxt kursi- Ko`ktosh qo`yilga. Samarqand arkida yana davlat devonxonasi, qurol-yarog` ustaxonasi va aslahaxona, zarbxona vva qamoqxona joylashgan edi. 1403-1404 yillarda Samarqandda bo`lgan Ispaniya elchisi Klavixo Temurning binokorlik ishlaridan hayratda qolgan edi. Shu davrda Shohizindadagi ba`zi maqbaralar, Bibixonim Jome masjidi quriladi.

Haqiqatan ham, Amir Temur davrida Samarqand Sharqning go`zal shaharlardan hisoblangan. Samarqand dunyoda birinchi o`rinda turishi kerak degan niyatni ko`ngliga tugib qo`ygan Sohibqiron Samarqand atrofidagi qishloqlarni dunyodagi dongdor shaharlarning ( Misr, Damashq, Bag`dod, Sheroz kabi) nomlari bilan atashga buyruq bergan. Shunungdek, shahar tevaragidagi Bog`i Naqshijaxon, Bog`i Behisht, Bog`i amirzoda Shohrux, Bog`i Dilkusho, Bog`i Shamol, Bog`i Davlatobod, Bog`i Bo`ldi, Bog`i Maydon, Bog`i Baland, Bog`i Chinor, Bog`i Jahonnumo, Bog`i Nav deb atalmish 12 chorborg` qurdirgan. Temur bog`lari tillarda doston bo`lgan. Bog` uchun yer tanlashda o`sha yerning bahavoligiga, baland-pastligiga, suv manbaining oz-ko`pligiga va tabiatining xususiyatlariga alohida ahamiyat berilgan.

Ispaniya qirolining Amir Temur huzuriga yo`llagan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o`z “Kundaligi”da: “Samarqand tashqarisidagi bog`i Dilkushoga kelib tushdilar. Bu manzil shahar atrofidagi eng katta va go`zal bog` edi, oltin hamda zangori koshinlar bilan zeb berilgan juda keng va baland darvozasidan boqqa kiriladi. Darvoza oldida nayzalar bilan qurollangan posbonlar turar edilar” deb eslaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur bu bog` haqida: “Temurbek Samarqandning sharqida ikki bog` solibtur, birikim yiroqroqtatur, Bog`i Bo`ldudur, yovuqrog`i Bog`i Dilkushodur. Andin Feruza Darvozasigacha xiyobon qilib, ikki tarafida terak yog`ochlari ektiribtur. Dilkushoda ham ulug` ko`shk soldurubtur, ul ko`shkta Temurbekning Hinduston urushini tasvir qiliburlar” deb, ma`lumot beradi o`zining “Boburnoma” asarida.

Taniqli Venger sharqshunos olimi Herman Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarida: “Sharq tomonda Dilkusho saroyi bor, shaharga qaragan eshidiga Darvozai Firuza deb hal bilan juda chiroyli kitoba qilingan. Bu saroyning keng, katta osmon va yulduzli koshlar bilan bezatilgan peshtoqi uzoqdan yaltirab turar edi. Saroyning tashqi hovlisida xoqon saroylari bor; bunda qurollangan askarlar turadilar, ichki hovlida esa, tug’lar bilan bezatilgan oltita fil safi ziyoratchilarni hayratga solardi”.

Ko`rinib turibdiki, yozma manbalarda Bog`i Dilkusho haqida ma`lumotlar bir-birini to`ldirib, biri ikkinchisiga aniqlik kiritadi va ularni yig`ib qiyoslab qaralsa, ana shu bog` haqida ancha tafsilotlar olish mumkin. Bog`larning haqiqiy bog` bo`lishi, gurkirab yashnashi uchun suv masalasi to`g`ri hal qilinishi lozim. Chunki bog`larning qon tomirlari bo`lmish kanallar, ariqlar, bog`larni suv bilan ta`minlashi kerak. Lekin ular haqida kam ma`lumotga egamiz. Bog`lar asosan Zarafshon (Ko`hak) daryosi, shuningdek, qadimda (miloddan avvalgi V-IV asrlar) qazilgan Darg`om arig`idan sug`orilgan. Boburning yozishicha, Ko`hak daryosidan chiqarilgan Darg`om kanali Samarcanddan 2 kilometr chamasi janubdan oqib o`tgan. Samarcandning bog`lari, ularning atrofi va ba`zi bir tumanliklar shu Darg`omdan suv ichgan.

Ushbu kanaldan tashqari, Zarafshon daryosidan qazib chiqarilgan Abbas va Qoraunas ariqlari ham bo`lgan. Ana shulardan Abbas kanali Davlatobod bog`ini sug`organligi tadqiqotlar natijasida aniqlangan. Shuningdek, Kalvixo ham o`zi ko`rgan barcha bog`lar oldida keng maydonlar bo`lganliginni va ulardan ko`p kanallar oqib o`tganligini yozadi. Samarcand atrofidagi Jo`ybori Bozor, Jo`ybori Mazdohin, Jo`ybori Obirahmat, Jo`ybori Koranda, Jo`ybori Jadid ariqlari kabi ariqlar qazilib, ulardan 72 qishloq suv bilan ta`minlandi. Kanallardan tashqari, nomlari hozirgi kunlargacha saqlangan ko`plab ariqlar mavjud. Asosiy ariqlardan biri Obirahmatdir, Abu Tohirxo`janing yozishicha, Samarcandning shimoldagi bog`lardan birida Bog`i Baland, Bo`gi Maydonni va Bog`i Naqshijahonni sug`organ.

Ma`lumotlarga ko`ra, musulmonchilik qoidalariga ko`ra hovuzlarning eni ham, bo`yi ham kamida 40 gaz qilib qurilgan, aks holda, undagi suv harom deb hisoblangan.

So`zsiz, boshqa bog`larda ham ko`plab hovuzlar, bo`lgan va ularning chetlariga marmartosh taxtalari yotqizilgan. Amir Temur va temuriylar tomonidan Samarcand, Buxoro, Qashqadaryo, Marv, Tux vodiysi hamda Hirot va uning atrofida yirik sug`orish inshootlari barpo etiladi. Yangi qishloqlar va bog`lar barpo qilindi. Qobul yaqinidagi Juyinav dahasida Bodon anhori barpo etilib, yangi yerlar o`zlashtirildi.

Amir Temur 1381 yili Xurosonga yurishi chog`ida Murg`ob vodisida to`xtab, qo`shinlari va sarkardalariga ushbu daryordan ariqlar chiqarishni topshiradi. Bu ish tez orada nihoyasiga yetib, o`sha joylar obod bo`ladi. Hofiz Abru “Geografiya” asarida bu ariqlarning nomlarini sanab o`tgan: Dilkusho arig`i, Ganjrevon arig`i, Darband arig`i, Ganjxona arig`i, Umar Tobon arig`i, Oq Bug`o arig`i, Qutlug` Temur arig`i, Shayx Abu Sa`d arig`i, Shayx Ali arig`i, Davlatshoh Jondor arig`i, Kelachi arig`i, Mengli xoja arig`i, Ali Malik arig`i kabi ariq va kanallarni qazilishida boshchilik qildi.

Aksariyat ariqlarning nomlari, ularni qazishda boshchilik qilganlar ismiga qo`yilgan edi. Temur va temuriylar davri Movarounnahrda texnik ekinlardan paxta muhim o`rin tutgan. Tarixchilar qayd etishicha, u Samarcand yaqinidagi yerlar, Balx atrofi, Shahrisabz yaqinidagi sug`orma yerlar va boshqa yerlarda yetishtirilgan. Movarounnahr qishloqlari va ko`pgina shaharlarda paxtadan ip-gazlama tayyorlanishi, shuningdek ko`pchilik hunarmandlarning paxtadan muayyan gazlama turi tayyorlashga ixtisoslashgani, bu ekinni hamma joyda yetishtirish kengayganidan guvohlik beradi. Qishloqliklar o`z ehtiyojidan orttirib, bu matolarning bir qismini keng iste`molchilar - shaharliklar va sahro aholisi orasida sotish maqsadida ham ishlab chiqargan. Shuningdek, paxta yetishtirishning

tarqalganligini shu narsa ham tasdiqlaydiki, yirik shaharlarda yaqin - atroflardan keltiriladigan paxtani saqlash va sotish uchun maxsus binolar qurilgan.

Butun XV asr davomida Movarounnahr va Xurosonda avvalgidek yer va mulkchilikning asosan to'rt shakli: mulki devoniy - davlat yerlari, mulk - xususiy yerlar, mulki vaqf - madrasa va ibodatxonalar tasarrufidagi yerlar va nihoyat jamoa yerlari bo'lgan. Dehqonchilik yerlarining eng katta qismi davlat mulki hisoblangan. Bu yerlarga avvalgidek mamlakat hukmdori sulton yoki amirlar egalik qilardi. Temuriylar davrida davlat yerlarini suyurg'ol tarzida in'om qilish keng tarqaladi. Yer egaligining asosiy toifalaridan birini davlat yerlari tashkil etgan. Uning daromadlari asosan saroyni va qo'shinni ta'minlashga ketgan. Bu yerlar hukmron sulola a'zolari va amirlarning sohibqiron oldidagi xizmatlari, asosan harbiy xizmatlari - harbiy yurishlarda qatnashish, isyonkor feodallarni tobe etish, chegarani qo'riqlash uchun mukofotlashning asosiy manbai bo'lib xizmat etdi.

Uluslar markaziy hukumatga itoat etsada, ammo ma'lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida davlat devonxonasi, qo'shini mavjud edi. Ularning markaziy hukumatga tobelligi xirojning bir qismini Samarqandga yuborib turish va oliv hukmdor harbiy yurishlarida o'z qo'shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborishdan iborat edi. XV asrda ham avvalgi davrlardagidek katta yer may maydonlari va sug'orish tarmoqlari, shuningdek ko'plab do'kon, korxona, tegirmon, objuvoz, bozor, karvonsaroylar, masjid, madrasa, xonaqoh, maqbara va mozorlarga biriktirilib, ular mulki vaqf deb atalgan. Merhnatkash aholi o'rtasida vaqfkor yerlar nomi bilan yuritilgan. Ma'lumki, Temur va Temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ko'plab masjid, madrasa, shifoxonalar bino qilinib, ularning barchasi vaqf mulkiga ega edi. Vaqf mulklaridan tushgan daromad masjid, madrasa, shifoxona va xonaqohlarning ta'miri, jahozi, shuningdek mutavalli, mudarris, tabib va talabalarga beriladigan nafaqalar hamda langarxona (musofirxona) va shifoxonalarning kundalik xarajatlari uchun sarf qilingan.

Yer soliqlari, xiroj, mol, ushr va sardaraxt, hamda chorva mollaridan olinadigan zakotdan tashqari fuqaro soliq yig'ish va uning hisob-kitobi bilan band bo'lgan turli lavozimdagagi ma'murlarning xizmati uchun ham bir qancha yig'implar to'lashga majbur bo'lgan. Masalan, bunday yig'implardan sohib jamona-hosil miqdorini belgilovchilar ; muxassiloni - soliq yig'uvchilar; zabitona- kirimni boshqaruvchilar; dorug'ona - dorug'olar; mirobona - suv taqsimlovchi miroblar foydasiga olingan.

Bulardan tashqari, mehnatkash aholi favqulodda xarajatlar uchun avorizot va tavoj-juxoti xorijiy kabi odatdan tashqari soliqlarni ham to'lagan. Soliqlardan tashqari mehnatkash aholi hukmdor va uning ma'murlari, suyurg'ol egalari va taxxonlar, shuningdek yirik mulkdorlar foydasiga muayyan muddat tekin ishlab berishga majbur edi. XV asrda qurilish ishlari kengayib, bu davrda qad ko'targan saroylar, jamoat binolari, mudofaa va sug'orish inshootlari hamda yo'l qurilishi va tuzatishlarda mehnatkash aholi kuchidan keng foydalanilgan. Bunday hashar ishlar begor deb atalgan. Begorda qatnashuvchi har bir hasharchi ishlashi uchun kerakli asbob-anjomlar va yetarli yemaklarni o'zi bilan olib kelishi lozim bo'lgan. Temur va uning ba'zi vorislari soliq miqdori va to'lov tartibini buzmaslikka, suiste'mollikni oldini olishga harakat qilganlar. Tartibga rioya qilmagan ayrim ma'murlarni jazoga tortganlar. Shunga qaramasdan, soliq yig'uvchilarning o'zboshimchaligi muttasil davom etaverган. Masalan, Sulton Husayn ma'murlari aholiga o'zboshimchalik bilan favqulodda soliq solgani oqibatida 1470 yilda Muhammad Yodgor boshchiligidida Hirot aholisi qo'zg'olon ko'taradi. Navoiyning sa'y-harakati va o'zboshimcha ma'murlarning jazolanishi bilan qo'zg'olon bostirildi. Sulton Husayn farmon chiqarib Hirot va uning atrofida yashovchi dehqonlar, muzoriylar va hunarmandlarni ikki yilga favqulodda soliqlardan va qo'shinni boqish uchun solinadigan to'lovlardan ozod qilishga majbur bo'ladi.

## Xulosa

Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Amir Temur va Temuriylar davrida Markaziy Osiyoning ikki buyuk daryosi – Amudaryo va Sirdaryo, hamda ularning irmoqlari havzasida sug'orma dehqonchilik madaniyati, sun'iy sug'orish inshootlari, yer-suv munosabatlarining islom dini ahkomlari va mulkchilik munosabatlari asosida shakllanishi va rivojlanishi tarixini, uning o'ziga xos jihatlarini yoritishga yo'naltirildi.

Movarounnahrda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Amir Temur va Temuriylar davlatining tashkil topishi va mamlakatning siyosiy jihatdan birlashuvi uning iqtisodining mustahkamlanishiga hamda irrigatsiya qurilishlarining jonlanishiga olib kelgan edi. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tartibga solinadi. Dashtlarga suv chiqarilib yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dasht joylardan yangi yerkarni ochish, korizlar qazib, bog'lar barpo qilish va qarovsiz qolgan tashlandiq yerkarni sug'orib obod etish uchun amalga oshirilgan har qanday faoliyat temuriylar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Hatto bunday sohibkorlar bir-ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etiladi. Bu davrda bir qancha yirik sug'orish tarmoqlari va irrigatsiya inshootlari barpo etilib, hududlarning sug'orilib obod etilgan yerkarnining maydoni birmuncha kengayadi. Tuyatortar kanali qazilib, Zarafshon daryosining suvi hatto Jizzax vohasigacha olib boriladi.

Temuriylar davrida yaratilgan mahalliy tarixiy-geografik asarlar ham yer-suv munosabatlari tizimi faoliyatiga oid muhim ma'lumotlarga boy. Amir Temur va temuriylar davri manbalari ichida "Temur tuzuklari", Sharafuddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarcandiy, Nizomiddin Shomiy, Hofiz Abru va boshqa mualliflar asarlardagi ma'lumotlar, xususan G'iyosiddinning "Xitoy safarnomasi" muhim o'rinni tutadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.) / Пер. со стариспанского, предисловия и комментарий И. С. Мироковой. – М. : Главная редакция Восточной Литературы, 1990. – 212 с
2. Temur tuzuklari / Forschadan Alixon Sog'uniy va Habibullo Karomatov tarjimasi. So'z boshi va izohlar, umumiy tahrir akademik B. Ahmedovniki. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1996. - 382 b.
3. Xafiz-i Abru. Geografiya (Izvlecheniya). X–XIX vv. – Tashkent: Fan, 1988. – s. 142-1.
4. Alimov R. A. Sohibqiron Amir Temur (Metodik tavsisiyanoma). – Toshkent, 1995.
5. Alimov O'. Amir Temur davrida bog'dorchilik. // Amir Temur saboqlari: "Amir Temur va inson manfaatlari" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferentsiya materiallari. – T.: Sharq, 1998.
6. Amir Temur jahon tarixida/ To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. – Toshkent: Sharq, 2001. - 304 b.
7. Ahmedov B. Amir Temurning davlatni idora qilish siyosati / Amir Temurni yod etib. – Toshkent: O'zbekiston, 1996.
8. Bo'riev O. Amir Temur davrida Movarounnahr va Mo'g'uliston munosabatlari // Sharqshunoslik. – Toshkent, 1996.
9. Yoldasheva, B., & Parizod, S. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O'rni. *Miasto Przyszlosci*, 41, 424-429.
10. Юлдошева, Б. М. (2020). XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА АТРОФ-МУҲИТ МАСАЛАСИГА ЁНДАШУВЛИАР ТАРИХИДАН (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*.

11. Bibirjab, Y., Jo'rayeva, D., & Ahmadjon, A. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA TOMORQA XO'JALIGINING RIVOJLANISHI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 287-290.
12. Yusupova, M. (2022). БУХОРО ВОҲАСИ МАРОСИМЛАРИДА ПИШИРИЛАДИГАН ТАОМЛАР ВА УЛАРНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 21(21).
13. Yusupova, M. (2020). Наврӯз байрами таомлари тарихийдик ва замонавийлик. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 2(2).
14. Aymatova, Z. (2022). HOFIZ TANISH BUXORIY VA UNING "SHARAFNOMAYI SHONIY" ASARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 20(20).
15. Эргашев, Ж. Ю., & Латипов, Ж. Л. (2021). Хитан халқи этногенези масаласига доир илмий хуносалар хилма-хиллиги. *Ўтмишга назар.-Тошкент*, (2), 93-100.
16. Orziyev, M. (2021). Афғонистон давлатининг ташкил топиши ва xviii аср иккинчи ярмида бухоро-афғон муносабатлари. *Центр научных публикаций* (buxdu. uz), 8(8).
17. Yavmutov, D. S., & Adxamovich, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 18, 34-39.
18. Yusupova, D. T. The Current State of Investment Processes in Uzbekistan. *Journal of Marketing and Emerging Economics*.